XALQ DEPUTATLARI PAXTAKOR TUMANI KENGASH
QARORI

2022 - yil 31 - dekabr VI-45-278-3-52-K/22 Paxtakor tuman hokimligi

Paxtakor tumanidagi “Paxtakor”, “Olmazor”, “Nurli Pangat” va “Bog‘ishamol” mahalla fuqarolar yig‘inlarining chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar posyolkalar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularni nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi 48-sonli qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 11 va 31-moddalariga muvofiq, tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limining 2022-yil 28-noyabrdagi 272/1-sonli xati o‘rganib chiqib O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 11 va 31-moddalariga muvofiq, tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limining 2022-yil 28-noyabrdagi 272/1-sonli, “Nurli Pangat” mahalla fuqarolar yig‘inining 2022-yil 27-noyabrdagi 62-sonli, “Bog‘ishamol” mahalla fuqarolar yig‘inining 2022-yil 28-noyabrdagi 35-sonli, “Olmazor” mahalla fuqarolar yig‘inining 2022-yil 28-noyabrdagi 19-sonli, “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘inining 2022-yil 27-noyabrdagi 07-sonli xatlari hamda Kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i Sh.To‘rayevning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limining hamda

Kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i Sh.To‘rayevning axborotiga asosan, “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan uzoq masofada joylashganligi Cho‘lquvar aholi punktidagi 64 nafar aholi, 12 ta xonadonni “Olmazor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiga, “Nurli Pangat” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Shabada aholi punktidagi 54 nafar aholi 10 ta xonadonlarini “Bog‘ishamol” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiga o‘tkazish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

3. Geografik obyektlarga nom berish va ularni nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi, mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, moliya bo‘limi, adliya bo‘limi boshliqlariga, o‘zgartirish kiritilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha tegishli hujjatlarni “Geografik obyektlarga nom berish va ularni nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha toponimika viloyat komissiyasi”ga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

4. Paxtakor tumani qurilish bo‘limi, obodonlashtirish boshqarmasi, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, moliya bo‘limi, statistika bo‘limi, aholi bandligiga ko‘maklashish markazi, kadastrlar palatasi tuman filialiga, bir oy muddatda chegara hududlari o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘inlarini me’yoriy hujjatlarini belgilangan tartibda o‘zgartirish vazifasi topshirilsin.


5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (E.Axmedov)ga, tuman hududidagi chegara hududlari o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘inlarida yashovchi fuqarolarni ro‘yxatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Qurbonov) va “Paxtakor hayoti” gazetasi (M.To‘xtasheva)larga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalari orqali yoritish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish” va “Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi hamda tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash bo‘limi boshlig‘i A.Salomov zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashi raisi **A.Ashurov**

Xalq deputatlari Paxtakor tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-45-278-3-52-K/22-son qaroriga
1-ilova



Xalq deputatlari Paxtakor tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-45-278-3-52-K/22-son qaroriga
2-ilova

